

G'AZAL MULKINING SULTONI

Qoryog'diyev Jo'rabek Bobir o'g'li

(Toshkent davlat transport universiteti talabasi)

Annotatsiya: Maqsud Shayxzoda Alisher Navoiyning yubileyiga yozgan so'nggi maqolasini uning ilmiy vasiyati sifatida qabul qilinishi haqida.

Abstrakt: Maqsud Shaykhzoda Alisher wrote his last article on the anniversary of the Nawab about his adoption as a scientific testament.

Аннотация: О принятии последней статьи, написанной Максудом Шейхзаде к юбилею Алишера Навои, в качестве его научного завещания.

Kalit so`zlar: Maqsud Shayxzoda, maqola, Alisher Navoiy, yubiley, kitobxon, G'azal mulkinining sultoni, Shayx aka, Sakinaxonim, O'zbekiston ovozi, gazeta, g'azal, mukammal, he'rshunoslar.

Keywords: Maqsud Shaikhzadeh, article, Alisher Navoi, Jubilee, reader, Sultan of the ghazal estate, Sheikh aka, Sakinakhonim, Voice of Uzbekistan, newspaper, Ghazal, perfect, he'rologists.

Ключевые слова: Максуд шайхзада, статья, Алишер Навои, юбилей, китабхане, султан имени Газали, брат Шейх, Сакинахоним, голос Узбекистана, газета, Газель, совершенство, хер-ученые.

Maqsud Shayxzoda umrining eng qiziqgan, hamda intilgan onlari buyuk Alisher Navoiyning hayotini o'rganish bilan edi. Uning Alisher Navoiy haqidagi barcha kitoblar hamda qanday manba bo'lmasin barchasi haqidagi malumotlar bilan tanish ekanligi haqida juda yaxshi bilamiz. Ustozimiz Naim Karimov ham aniq hamda arxivdagi malumotlarga soslangan holda yozilgan kitoblarida quydagicha malumotlar berib o'tganlar.

Bir ming to'qqiz yuz oltmish oltinchi yilda buyuk Alisher Navoiy tug'ilgan kunga esh yuz yigirma besh yil to'lishi munosabati bilan, boshqa navoiyshunoslar singari, Maqsud Shayxzoda ham shu muborak ayyomni munosib sovg'a bilan kutib olmoqchi bo'ldi. Afsuski, sog'lining yo'qligi imkon bermagani tufayli u uzoq yillardan beri navoiyshunoslilik bobida olib borayotgan izlanishlarini yakunlay olmadı. Shuning uchun ham butun bemorlik kuchini jamlab, Navoiyga bag'ishlangan ilmiy maqolani yozmoqchi bo'ldi. U hatto shu haqda hozirgi "O'zbekiston ovozi" gazetasining muharriri Maqsud Qorievga qo'ng'iroq qilib, gazetadan joy olib turishni so'radi. Oradan biror hafta o'tgach. Muharrir gazeta xodimlari Anvar Yusupov bilan Mahkam Mahmudovni chaqirib, xasta shoirdan xabar olib turishni buyurdi: -



Anvarjon va Mahkamjon, o'zlaringiz bilasiz, - deb gap boshladi u, - Shayx aka ancha oylardan beri betob, ahvoli shu kunlari ancha og'irlashgan. Qanday qilib bo'lsayam domladan tez tez xabar olib, ko'nglini ko'tarib turish kerak. Gap bunday: hozir ikkalangiz Shayx akaning uyiga borasiz. Sog'liqlarini so'rab, salom deysiz. Hol-ahvollariga qaraysiz. Kayfiyatları yaxshi bo'lsa, gazetamizning iltimosini aytasiz. U kishi Alisher Navoiy ijodini suvday biladilar. O'tgan hafta menga qo'ng'iroq qilib, "G'azal mulkining sultoni" degan bir mashq boshlab qo'yibman", - degan edilar. U kishining mashqlarini ancha-muncha akademik ham yozolmaydi. Domlaning ko'nglini ko'tarib, maqola bitgan bo'lsa, olib kelib, tez bosmaga tayyorlanglar. Anvar Yusupov bilan Mahkam Mahmudov bu topshiriqni bajonidil qabul qilib, Shayxzodaning o'sha paytda Tuproqqa'rg'on (hozirgi Prezident Devoni) yaqinidagi Anhor bo'yida joylashgan Mutaxassislar uyiga qanot qoqib bordilar... Mahkam Mahmudov Shayxzoda bilan bo'lib o'tgan ushbu ilk uchrashuvini eslab, bunday hikoya qiladi: - Shoirning rafiqasi, beg'ubor qalbli Sakina opa eshikni ochib, bizni lutfan ichkariga boshladi. Opaning xotirjam chehrasidan domlaning ahvoli ancha tuzukligini sezib, quvondik. Shayx aka hamma tarafi liq to'la kitob tokchalari bilan o'ralgan chog'roq ijodkonasida ishlab o'tirgan ekanlar. Chehralari horg'in, lekin mammun. Quvonib qarshi oldilar. Dumaloq stol ustida kerakli sahifalari ochilgan kitoblar sig'maganidan ayqash uyqash bo'lib yotibdi.. Deraza tokchlari, kreslo, kursilar ustida ham sahifalari ochilgan, oq qog'ozlardan belgililar qo'yilgan kitoblar. Simsavatda yozilib, g'ijimlab tashlangan varaqlar... Keyinchalik biz, yoshlari, naviyshunoslar, tarixchilardan Hamid Sulaymon, Ergash Rustamov, Aziz Qayumov... va boshqalar bilan hamsuhbat bo'lib, Navoiy shaxsini, uning buyuk zamondoshlari hayotini iqtidorimiz yetgancha o'rgandik. Ammo o'sha kuni biz Shayx akadan Navoiy ijodi, g'azallarining qudrati haqida bir dunyo ma'rifat oldik... Qizig'i shundaki, buyuk o'zbek mutafakkiri haqida bir dunyo kitob o'qigan Shayx aka suhabatdoshlari oldida o'zini bilimdonday tutmas, ba'zi ajoyib dalillarni gapirayotganda esa biz bilan baravar hayratlanardi... Afsuski, Mahkam Mahmudov Shayxzodaning uyiga qachon borganini aniq eslolmaydi. Ammo ushbu maqolaning yozilish jarayonidan hiyla xabardor bo'lган Fitrat domlaning singlisi Mahbuba Rahim qizi esa shoir haqidagi xotirasida shu haqda quyidagi ma'lumotni beradi: "Men Maqsud Shayxzodaning eng so'nggi "G'azal mulkining sultoni" nomli ilmiy maqolasining yozilish tarixi guvohiman. Maqsudning Kreml kasalxonasi va Moskva yonidagi kardiologik sanatoriyyda davolanib kelganidan keyin, bir ikki oy ham o'tmasdan, zotiljam bilan kasal bo'lganini eshitib, ko'rgani bordim. U isitmasi bo'lGANI holda nimanidir yozib o'tirar edi. Men ko'rishib, hol-ahvol so'rab,



oshxonadagi Sakinaxonimning yoniga chiqdim. - Maqsudning tobi yo'q, deb kelsam, ishlab o'tiribdi ekan. Xalal bermaslik uchun bu yerga chiqdim, - dedim.

Sakinaxonim fig'oni oshib gapira kedi: - Isitmasi baland. Yo'talyapti. Ertalabdan beri temperaturasi o'ttiz sakkiz dan tushmayotir. "Maqolani bitirmasdan yotmayman", - deb o'jarlik qilayotir. Ertaga redaksiyaga topshirishi lozim ekan. Kechasi yana temperatuasi ko'tarilib ketishidan qo'rqaman... Kechga borib, Maqsudning isitmasi o'ttiz to'qqiz gradusga ko'tarildi. U o'zida ortiq darajada horg'inlik sezsa, bir oz boshini qo'yar, bir ikki soat o'tgach, karaxtlik bilan ko'zini oshib, yana gandiraklagan holda stol oldiga kelib yozar edi. Shu ko'yi u soat ikki larda maqolani yozib tugatdi-yu, joyiga uzandi va tezda dong qotib uqlab qoldi..." Va'da qilingan maqola qariyb bitgan bo'lsa ham, Shayxzoda uni gazetaga berishga shoshilmadi. Maqolada tilga olingan har bir adabiy faktini, har bir havolani xastaligiga qaramay, manbalar asosida tekshirib chiqdi. Shundan keyingina u gazeta tahririyatiga qo'ng'iroq qilib, maqolani olib ketishlari mumkinligini aytdi. Nomi keyinchalik mashhur bo'lib ketgan "G'azal mulkining sulton'i" maqolasi hozirgi "O'zbekiston ovozi" gazetasining bir min to'qqiz yuz oltmish oltinchi yil o'n beshinchchi dekabr sonida e'lon qilindi. Maqola bunday ilmiy-xulosaviy va ayni paytda badiiyatning billur qatalari porlab turgan fikrlar bilan boshlangan edi: "Shunisi aniqki, O'rta, Yaqin va Markaziy Sharqdagi mamlakatlarning she'riyat tarixi tadqiq etilsa, tekshiruvchi bu xalqlarning she'riy ijodida g'azal degan turning asosiy rol o'ynaganiga qoyil qoladi.

Shayxzoda Sharq mumtoz she'riyatining gultoji - g'azal janrining arab shoirlari ijodida paydo bo'lishi va ular ijodidan O'rta Osiyo shoirlari ijodiga ko'chib, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodida kamol nuqtasiga erishishidek murakkab ilmiy muammoni shunday sodda va nafis so'zlar bilan tasvirlab bergen ediki, adabiyotshunoslik ilmining ko'chasiga kirmagan kishi ham shu maqola orqali g'azal janri nima-yu bu janrning, ya'ni g'azal mulkining sulton'i qanday buyuk shoir bo'lganini aniq tasavvur eta olgan. Navoiy g'azallarini mukammal o'rgangan Shayxzoda bu kichik bir ilmiy-ommabop asarida g'azalning badiiy vazifasi, turlari, lirik syujetni yaratish usullari va hokazolar haqida qimmatbaho ma'lumotlar bergen va o'z fikrini yorqin misollar bilan asoslagan ediki, shularga asoslanib, mazkur maqolani Navoiy g'azaliyotining tom ma'nodagi yuksak poetik tahlili sifatida baholash adolatdan bo'ladi. Shayxzoda shu maqolasi bilan navoiyshunos olimlarning eng oldingi safiga o'tib olgan edi.

Xulosa: Shayxzoda "Hozir Navoiyning yuksak yubiley kunlarida, - deb yozgan u, - bizni bo'lak narsalar ko'proq qiziqtirmog'i lozim. Bizning zamonaviy she'ri mahsulimiz ko'p, haddan oshiq ko'p va so'lg'un misralar kitob bozorini qoplab yotibdi. Holbuki, ularga qo'yilaturgan talablarimiz bo'sh, g'ayri ijodiy, adabiy malaka





darajasidan ancha pastdir. Navoiy davrida bitta g'azalni baholash uchun ustozlar uning o'n- o'n besh belgisini tekshirib ko'rар edi. Bizning she'rshunoslarimizga, taqrizchilarimizga va shoirlarimizning o'zlariga bu talabchanlik yetmaydi..." Maqoladagi shunga o'xshash tanqidiy mulohazalar bizni Shayxzodaning bu so'nggi maqolasini uning ilmiy vasiyati sifatida qabul qilishga, bizni hozirgi o'zbek she'riyatini Navoiy erishgan badiiy yuksaklikdan turib baholashga undagandek bo'ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Bobirovich, Q. D. J. R. (2023). MAQSUD SHAYXZODA VA ABADIYATGA DAHLDORLIK. " GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS,
2. Islomovna, M. F. (2024). O 'ZBEK ADABIYOTINING ATOQLI NAMOYANDALARIDAN BIRI MAQSUD SHAYXZODNING "JALOLIDDIN MANGUBERDI" ASARI. Yangi O'zbekistonda Tabiiy va Ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi,
3. Islamovna, M. F. (2024, January). MAQSUD SHAYKHZADEH-TWO FOLK DILBANDI. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS
4. Mamurova, F. (2023). MAQSUD SHAYXZODANING ADABIY MEROsi. Бюллетень студентов нового Узбекистана,

